



## TOSHKENT VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI INVESTITSIYA VA QURILISH STATISTIKASI BO'LIMI

2019 YILNING YANVAR-APREL  
OYLARIDA QURILISH ISHLARI

### Raqamlar:

Qurilish ishlari  
hajmi -  
**1178,7 mlrd.so'm**  
Yirik pudrat  
tashkilotlari ulushi  
**- 12,7 %**  
Kichik tashkilotlar  
va mikrofirmalar  
ulushi -  
**51,5 %**  
Norasmiy sektor  
ulushi –  
**36,2 %**

Joriy yilning yanvar-aprel oylarida Toshkent viloyatida jami 1178,7 mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 107,3 % ni tashkil etdi.

Jami qurilish ishlari hajmidan yirik pudrat tashkilotlari tomonidan 150,2 mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 12,7% hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 125,3 % ni


tashkil etdi.

Kichik korxonalar va tashkilotlar, mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 51,1 % yoki 601,7 mlrd.so'm to'g'ri keldi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 103,8 %ni tashkil etdi, norasmiy sektor hissasiga esa 36,2 % yoki 426,8 mlrd.so'm to'g'ri keldi hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 107,1 %ni tashkil etdi.

Yirik pudrat tashkilotlari	<ul style="list-style-type: none"><li>• hajmi - 150,2mlrd.so'm</li><li>• o'sish sur'ati -125,3 %</li></ul>
Kichik tashkilotlar va mikrofirmalar	<ul style="list-style-type: none"><li>• hajmi - 601,7mlrd.so'm</li><li>• o'sish sur'ati - 103,8 %</li></ul>
Norasmiy sektor	<ul style="list-style-type: none"><li>• hajmi -426,8 mlrd.so'm</li><li>• o'sish sur'ati - 107,1%</li></ul>



## IQTISODIY FAOLIYAT TURLARI BO'YICHA QURILISH ISHLARI



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.


Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi 903,6 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davridagi nisbatan 207,8 mlrd so'mga ko'paygan.

Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda 108,2 mlrd .so'mni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 20,7 mlrd. so'mga ko'paygan.


Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi esa 166,9 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yil davriga nisbatan 28,3 mlrd. so'mga ko'paygan.



### Yanvar-aprel oylarida qurilish ishlarining faoliyat turlari bo'yicha tarkibi




### Yanvar- aprel oylarida qurilish ishlarining faoliyat turlari bo'yicha tarkibi



Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi ulushi 13,1 % ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,2 % ga ko'paydi. Bunda kichik tashkilotlar va mikrofirmalar ulushi 39,7 % (2,9 % ga kamaydi) va norasmiy sektorning ulushi 47,2 % ni (1,7 % ga ko'paydi ) tashkil etdi.

Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish ishlari bo'yicha yirik pudrat tashkilotlarining ulushi 26,6 % ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 3,0% ga ko'paydi. Shuningdek, kichik tashkilotlar va mikrofirmalar ulushi 73,4 % ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 2,7 % ga kamaydi .

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida kichik tashkilotlar va mikrofirmalar hissasiga 98,0 % to'g'ri kelib o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,9 % punktga kamaydi.



### 2019 yil yanvar- aprel oylarida hududlar bo'yicha qurilish ishlari



Qurilish ishlari hajmida hududlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining tumanlar bo'yicha tarkibida Zangiota tumani, yetakchilik qilmoqda. Ushbu hududda bajarilgan qurilish ishlari hajmi yanvar- aprel oyida 183,4 mlrd.so'm yoki o'tgan yilga nisbatan 104,1 %ga bajarildi.


	<b>Jami</b>		
	Bajarilgan qurilish ishlari hajmi (mlrd.so'm)	2018 yil yanvar- aprel ga nisbatan % da	Jami qurilish ishlari hajmida hududlarning ulushi
<b>Toshkent viloyati</b>	<b>1178,7</b>	<b>107,3</b>	<b>100,0</b>
Nurafshon shahri	44,6	102,3	3,8
Olmaliq shahri	52,3	116,3	4,4
Angren shahri	49,7	115,6	4,2
Bekobod shahri	46,3	100,3	3,9
Ohangaron shahri	33,3	104,2	2,8
Chirchiq shahri	54,6	101,8	4,6
Yangiyo'l shahri	18,1	111,8	1,5
Oqqo'rg'on tumani	33,1	105,7	2,8
Ohangaron tumani	29,6	93,6	2,5
Bekobod tumani	37,3	105,2	3,2
Bo'stonliq tumani	70,9	124,6	6,1
Bo'ka tumani	24,3	95,9	2,1
Quyichirchiq tumani	21,2	111,8	1,8
Zangiota tumani	183,4	104,1	15,6
Yuqorichirchiq tumani	74,7	99,4	6,3
Qibray tumani	88,5	109,3	7,5
Parkent tumani	57,5	103,0	4,9
Piskent tumani	20,2	130,7	1,7
O'rtachirchiq tumani	55,4	121,5	4,7
Chinoz tumani	32,9	104,9	2,8
Yangiyo'l tumani	38,6	92,3	3,3
Toshkent tumani	112,2	116,3	9,5


Shuningdek, qurilish ishlari hajmining eng yuqori darajasi quyidagi hududlarda kuzatildi:

- Toshkent tumanida (112,2 mlrd. so'm yoki 116,3 %), Qibray tumanida (88,5 mlrd. so'm yoki 109,3 %), Yuqorichirchiq tumanida (74,7 mlrd. so'm yoki 99,4 %) va Bo'stonliq tumanida (70,9 mlrd. so'm yoki 124,6 %) bajarilgan.


Qurilish ishlari hajmining eng past darajasi quyidagi hududlarda kuzatildi:

Yangiyo'l shahrida (18,1 mlrd. so'm yoki 111,8 %), Bo'ka tumani (24,3 mlrd. so'm yoki 95,9 %) va Piskent tumani (20,2 mlrd. so'm yoki 130,7 %) qurilish-pudrat ishlari amalga oshirildi;





### 2019 yilning yanvar- aprel oylarida qurilish ishlari umumiy hajmida hududlarning ulushi (umumiy hajmga nisbatan %da)



Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlarining katta qismi Zangiota tumanida bajarilgan bo`lib, viloyatda bajarilgan jami qurilish ishlarining 15,6 %ini, Toshkent tumanida 9,5 %ni va Qibray tumanida bajarilgan qurilish ishlari esa 7,5 %ni tashkil etdi.

Viloyatda amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi bo`yicha past ko`rsatkichlar: Yangiyo`l shahrida bu ko`rsatkich eng past 1,5 %ni tashkil etdi. Bo`ka tumani 2,1 %ni va Piskent tumanda 1,7 %dan tashkil etganligini kuzatishimiz mumkin.

Qurilish ishlari mavsumining boshlanishi bilan hududlarda bajariladigan qurilish ishlarining hajmi ortib, ularning viloyatdagi ulushi ham o`zgarib boradi.



**“Investitsiya va qurilish statistikasi” bo`limi**

**Nashirga mas`ul: B. Djavliyev**

**Tel.: 230-86-70, (71)**